

## O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISH VA IQTISODIY RIVOJLANISH IQTIQBOLLARI

Abdumalikova Busalima Abduvali qizi

“Menejment” fakulteti 2-kurs talabasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

e-mail: busalimaabdumalikova21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20457911>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining yetakchi drayveri hisoblangan sanoat tarmog‘ining tarkibiy salohiyati, uning barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashdagi strategik o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri tahlil qilinib, tarmoqni transformatsiya qilish va kelgusida raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor istiqbollari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sanoat, samaradorlik, tarkibiy o‘zgarishlar, texnologiya, modernizatsiyalash, diversifikatsiya, mahsulot hajmi, budjet, soliq, pul kredit, narx, investitsiya, tahlil.

**Abstract:** This paper investigates the structural potential of the industrial sector, recognized as a key driver of the national economy, and its strategic role in ensuring sustainable growth rates. Furthermore, it analyzes the impact of industrial modernization processes on economic efficiency, providing a scholarly justification for sector transformation and priority prospects for enhancing future competitiveness.

**Keywords:** industry, efficiency, structural changes, technology, modernization, diversification, output volume, budget, tax, monetary and credit, price, investment, analysis.

**Аннотация:** В данной работе исследуется структурный потенциал промышленного сектора, рассматриваемого в качестве ключевого драйвера национальной экономики, а также его стратегическая роль в обеспечении устойчивых темпов роста. Кроме того, анализируется влияние процессов модернизации промышленных предприятий на экономическую эффективность, и приводятся научные обоснования трансформации отрасли и приоритетных перспектив повышения её конкурентоспособности в будущем.

**Ключевые слова:** промышленность, эффективность, структурные изменения, технология, модернизация, диверсификация, объем продукции, бюджет, налог, денежно-кредитная, цена, инвестиции, анализ.

### KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror sur‘atlarda o‘shishi ko‘p jihatdan an‘anaviy xomashyo resurslarini eksport qilish yoki tashqi bozorlardagi vaqtinchalik narx konyunkturasiga tayanib qolmagan. Aksincha, milliy taraqqiyotning tub omili iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarish tizimini tarkibiy jihatdan tubdan yangilash hamda diversifikatsiyalash hisoblanadi. Hozirgi bosqichda YaIM o‘shish dinamikasi yuqori texnologiyali xizmatlar va bozor talablariga mos, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga ta‘minlanmoqda. Sanoat kompleksi o‘zining yuqori multiplikativ tabiati va qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish salohiyati tufayli milliy xo‘jalik tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi bevosita sanoat tarmoqlarining qay darajada moslashuvchanligiga bog‘liq. Mahalliy xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash zanjiriga yo‘naltirish ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday

diversifikatsiya jarayonlari xomashyoga bog‘liqlikni kamaytirib, yakuniy tayyor mahsulot hajmini oshirish imkonini beradi va sanoatning tarkibiy barqarorligini yangi sifat bosqichiga ko‘taradi.

Sanoat sektori faqatgina makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirib qolmay, aholi bandligini ta‘minlash va mehnat bozoridagi muvozanatni saqlashda strategik institut vazifasini o‘taydi. Korxonalarda qayta ishlash quvvatlarining kengayishi va yuqori qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortishi yangi, barqaror ish o‘rinlarini yaratish bilan uzviy bog‘liq. Makroiqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish zanjirida qo‘shimcha qiymat ulushining kengayishi hamda ushbu tarmoqda band bo‘lgan xodimlar sonining dinamik o‘zgarishi o‘rtasida aniq va to‘g‘ri uzviy bog‘liqlik mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “... mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi [1]. Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunga muvofiq, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli milliy sanoat salohiyati tobora yuksalib bormoqda.


### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2017-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) tarkibida sanoat va qurilish sohalarining umumiy ulushi 33,5 foiz darajasida qayd etilgan [8]. Ushbu ijobiy tendensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ham alohida e‘tirof etilgan [2]. Davlatimiz rahbari o‘z ma‘ruzasida hisobot davrida iqtisodiy-ijtimoiy mutanosiblikka aynan ishlab chiqarish quvvatlarini tarkibiy yangilash, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish evaziga erishilganini ta‘kidlagan. Chunonchi, tizimli islohotlar doirasida qisqa fursatda 161 ta yirik ishlab chiqarish quvvatlari (sanoat obyektlari)ning foydalanishga topshirilishi milliy iqtisodiyotga keyingi yillarda qo‘shimcha 1,5 trillion so‘mlik tayyor mahsulot yetkazib berish imkoniyatini yaratgan.

Milliy sanoatni modernizatsiya qilish doirasida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yirik investitsiyaviy loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent va Navoiy IESlarida zamonaviy bug‘-gaz qurilmalarining ishga tushirilishi energetika tizimining ishlab chiqarish quvvatlarini keskin oshirdi. Metallurgiya va tog‘-kon sanoatida Olmaliq KMK tomonidan “Yoshlik – 1” va “Yoshlik – 2” konlarining o‘zlashtirilishi hamda Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurilishi tarmoq eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, gidroenergetika va transport infratuzilmasini yaxshilash maqsadida Sardoba, Markaziy Farg‘ona va To‘palang suv omborlari barpo etilmoqda hamda Farg‘ona–Marg‘ilon temir yo‘l tarmog‘i elektrlashtirilmoqda. Uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash yo‘nalishida esa Qandim gazni qayta ishlash majmuasi hamda Muborak GIZ quvvatlarining kengaytirilishi tabiiy gaz, kondensat va oltingugurt ishlab chiqarish hajmini prognoz ko‘rsatkichlari asosida sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Bugungi kunda sanoat sohasida (qurilish bilan hisoblaganda) mamlakat YAIMining uchdan bir qismi yaratilib, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning deyarli 14 foizi mazkur soha hissasiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi 5 yilda sanoat korxonalari soni 2 baravar ko‘payib, 100 mingtaga yaqinlashdi. Milliy

iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish amalga oshirilmoqda.



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi (trln.so‘m va foizda)**

O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalari ishlab chiqarish hajmining ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, respublika korxonalaridan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy qiymati yildan-yilga barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Agar 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich 235,3 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib nominal hajm qariyb ikki barobardan ziyodga ortdi va 551,1 trln so‘mga yetdi. Oraliq yillar dinamikasida ham izchil o‘shish kuzatilib, ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 322,5 trln so‘m, 2020-yilda 368,7 trln so‘m va 2021-yilda 456,1 trln so‘m darajasida qayd etildi.

Ishlab chiqarishning real o‘shish sur‘atlari tahlil qilinganda, global iqtisodiy inqirozlar va pandemiya cheklovlariga qaramay, mamlakat sanoat sektori ijobiy dinamikani saqlab qolgani ma‘lum bo‘ladi. 2018-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shishi o‘tgan yilga nisbatan 110,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ham barqarorlik saqlanib qoldi (2019-yilda 105%, 2020-yilda 100,9%, 2021-yilda 108,8% va 2022-yilda 105,2%). Ushbu foiz ko‘rsatkichlari mamlakatda sanoat ishlab chiqarish jarayonlari shunchaki inflatsiya hisobiga emas, balki real quvvatlarni ishga tushirish va tarkibiy yangilanishlar hisobiga kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

**XULOSA**

O‘zbekiston sanoat tarmog‘idagi modernizatsiya jarayonlari makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda ijobiy natijalar bermoqda. Shunga qaramay, xomashyodan foydalanish samaradorligining pastligi, kapitalning ma‘naviy-moddiy eskirganligi, mahsulot tannarxining yuqoriligi hamda investitsiyalarning eksport salmog‘iga yetarli darajada ta‘sir ko‘rsatmayotgani tarmoq taraqqiyotidagi asosiy muammolar bo‘lib qolmoqda.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy asoslangan innovatsion loyihalarni joriy etish, zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar transferini jadallashtirish hamda xususiy sektor va kichik biznes ulushini kengaytirish lozim. Shuningdek, mahalliyashtirish dasturlari hamda sanoat yarmarkalari berayotgan imtiyozlardan unumli foydalangan holda,

qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish va bank kreditlarining sohadagi ta'sirchanligini oshirish zarur. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va kichik korxonalar eksportini qo'llab-quvvatlash orqali erishiladigan barqaror sanoat o'sishi mamlakat iqtisodiyoti va aholi farovonligini yuksaltirishning tub asosi bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmonining 1-ilovasi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 23 dekabr 2017 y. № 258 (6952).
3. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxonalar iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
5. <http://kvarts.uz>.
6. <https://www.energonazorat.uz>.
7. <http://www.biznes-daily.uz>.
8. <http://evu.uz>